



THE DYNAMICS OF THE DEVELOPMENT OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM AND THE EFFECTIVENESS OF REFORMS IN UZBEKISTAN IN THE 1950S–1970S

Ulugbek Tuychievich Ashirov

Head of the Collections Department

State Museum of History and Culture of the Kashkadarya Region

ashirovulugbek8@gmail.com

Kashkadarya, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public education, reform, eight-year schooling, school, Kashkadarya, vocational training, student, teacher, literacy, development.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: The article analyzes the stages of development of the public education system in the Uzbek SSR during the 1950s–1970s and the essence of the 1958 education reform. It highlights the connection between education and production, the introduction of compulsory eight-year schooling, and the expansion of the school network. The differences between rural and urban schools, teacher qualifications, and material challenges are discussed. Using the Kashkadarya region as an example, the study presents statistical data on the dynamics of educational growth.

1950–1970-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA XALQ TA’LIMI TIZIMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ISLOHOTLARNING SAMARADORLIGI

Ulug‘bek To‘ychiyevich Ashirov

Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

fond bo‘limi mudiri

asirovulugbek8@gmail.com

Qashqadaryo, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xalq ta’limi, islohot, sakkiz yillik ta’lim, maktab, Qashqadaryo, ishlab chiqarish ta’limi, o‘quvchi, o‘qituvchi, savodxonlik, rivojlanish.

Annotatsiya: Maqolada 1950–1970-yillarda O‘zbekiston SSRda xalq ta’limi tizimining rivojlanish bosqichlari va 1958-yilgi ta’lim islohotining mohiyati tahlil qilingan. Ta’limni ishlab chiqarish bilan bog‘lash, sakkiz yillik majburiy o‘qishning joriy etilishi hamda maktab tarmog‘ining kengayishi yoritilgan.

Shuningdek, qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi tafovutlar, o'qituvchi malakasi va moddiy baza muammolari ko'rsatib o'tilgan. Qashqadaryo viloyati misolida ta'lim tizimining o'sish dinamikasi statistik manbalar asosida ochib berilgan.

ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1950–1970-Е ГОДЫ

Улугбек Туйчиевич Аширов

Заведующий фондовым отделом

Государственный музей истории и культуры Кашкадарьинской области

ashirovulugbek8@gmail.com

Кашкадарья, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	народное образование, реформа, восьмилетнее обучение, школа, Кашкадарья, производственное обучение, ученик, учитель, грамотность, развитие.	Аннотация: В статье анализируются этапы развития системы народного образования в Узбекской ССР в 1950–1970-х годах и сущность образовательной реформы 1958 года. Освещены вопросы связи обучения с производством, внедрение обязательного восьмилетнего обучения и расширение школьной сети. Также показаны различия между сельскими и городскими школами, проблемы квалификации учителей и материально-технической базы. На примере Кашкадарьинской области раскрыта динамика роста образовательной системы на основе статистических данных.
------------------------	---	--

Kirish. Ma'lumki, 1950–1970-yillarda O'zbekiston SSRda xalq ta'limi tizimi davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylandi. 1958-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash va xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qonun ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lashga yo'naltirildi. Bu islohot natijasida sakkiz yillik majburiy ta'lim joriy etildi, maktablar tarmog'i kengaydi, qishloq joylarda savodxonlik darajasi oshdi. Shu bilan birga, moddiy-texnika bazaning yetishmasligi va o'qituvchilar malakasining pastligi tizim samaradorligini chekladi.

1958 yil 24 dekabrda SSSR Oliy Soveti tomonidan "Maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash va xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, avvalgi yetti yillik majburiy ta'lim o'rniga sakkiz yillik umumiy ta'lim tizimi joriy etildi. Bu tizim 7 yoshdan 15–16 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oldi hamda xalq ta'limi Ushbu hujjat sovet ta'lim tizimi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Qonunning

asosiy mohiyati ta'limni hayot va ishlab chiqarish bilan bog'lash, maktab bitiruvchilarini iqtisodiyotning real ehtiyojlariga mos malakaga ega kadrlar sifatida tayyorlashdan iborat edi.

Tadqiqot va natijalar. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan ushbu islohotning bosh maqsadi – sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari uchun yetarli darajada tayyorgarlikka ega mutaxassislar zaxirasini shakllantirish bo'ldi. Shu tariqa, maktab faqat nazariy bilim berish muassasasi emas, balki yoshlarni amaliy mehnat va kasb tayyorgarligiga yo'naltiradigan ijtimoiy institut sifatida qarala boshladi.

Islohotning muhim tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqarish ta'limi tizimi joriy etildi. Yangi tartibga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilari haftasiga ikki kun ishlab chiqarishda ishtirok etishlari kerak edi. Bu usul yoshlarni amaliy ko'nikmalarga o'rgatish, ularda mehnat intizomi va jamoaviy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Ta'lim jarayonining ushbu shakli “fan–ta'lim–ishlab chiqarish” o'zaro bog'liq tizimida ko'zda tutilgan.

Qonunga muvofiq, maktabni bitirgan o'quvchilar attestat bilan birga kasbiy yo'nalish bo'yicha maxsus guvohnoma ham olishlari lozim edi. Bu ularga o'rta-maxsus ta'lim muassasalariga yoki ishlab chiqarish sohaslariga to'g'ridan-to'g'ri yo'nalish imkonini berdi.

Biroq amaliyotda bu islohotni to'liq joriy etish imkoni cheklangan bo'ldi. Ko'pgina hududlarda ishlab chiqarish bazalari yetarli emasligi, korxonalarda o'quvchi yoshlar uchun maxsus ish o'rinlari tashkil etilmagani sababli, ikki kunlik ish amaliyoti to'liq amalga oshmadi. Natijada kasbiy tayyorgarlik asosan maxsus texnikum va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari doirasida amalga oshirildi. Shuningdek, moddiy-texnika bazaning yetishmasligi, o'qituvchilarning ishlab chiqarish sohasiga oid malakasining pastligi va metodik ta'minotning sustligi ham mazkur islohotning to'liq samara berishini cheklab qo'ydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 1958 yilgi islohotlar sovet jamiyatidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimini zamon talablariga moslashtirish urinishlari ichida muhim o'rin tutdi. Uning maqsadi maktab va jamiyat munosabatlarini qayta tashkil etish, ta'limning hayot bilan uzviy aloqasini ta'minlash edi. Islohot pedagogika ilmining rivojiga ham kuchli turtki berdi — ta'lim mazmuni, metodikasi va tashkiliy shakllari ilmiy asosda qayta ko'rib chiqildi[1].

Qonun qabul qilingach, ta'lim qamrovi sezilarli kengaydi: Ўзбекистон мактабларида o'quvchilar soni yana ortdi. 1958 yilning ўзиде 1 million 399 ming bola maktablarda o'qigan[2]. O'rta ta'limni tugatgan o'quvchilar soni 1951-yilga nisbatan to'rt barobarga oshib, 58 ming nafarga yetgan. Ayniqsa, qishloq maktablari bitiruvchilarining soni tez o'sdi — 1958-yilda 40 mingdan ortiq qishloq yoshlari o'rta maktabni tugatdi[3].

Biroq, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu davrda O'zbekistonda maktab ta'limi qamrab olinmagan hududlar ham bo'lib, bu asosan qishloq joylarida istiqomat qilgan maktab

o'quvchilarini tashkil etgan. Masalan, 1961-yilda maktabga bormagan 7–15 yoshli bolalarning 80,8 foizi, 1970-yilda esa 70 foizi qishloq joylarga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, 1961-yilda ta'limdan butunlay chetda qolgan bolalarning 76,1 foizi, 1970-yilda esa 81 foizi qishloq bolalari bo'lgan[4].

Shuni ta'kidlash lozimki, o'sha davrda bolalar hisobini yuritish har doim ham aniq va tizimli tarzda amalga oshirilmagan. Natijada ayrim rasmiy hisobotlarda qamrov ko'rsatkichlari yuqori ko'rsatilsada, real holatda minglab bolalar, ayniqsa, chekka qishloq joylarda maktabdan tashqarida qolgan.

Shahar va qishloq maktablari o'rtasida ta'lim sifatida sezilarli tafovut kuzatilgan. Masalan, 1961/62 o'quv yilida qishloq maktablarining 1-sinfida 167 978 nafar o'quvchi o'qishni boshlagan bo'lsa, 1968/69 o'quv yiliga kelib shulardan 142 538 nafari (ya'ni 84,8%) sakkiz yillik ta'limni tugatgan. Taqqoslash uchun aytganda, shahar maktablarida bu ko'rsatkich 86,2 foizni tashkil etgan[5].

1960-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonda maktab tarmog'i sezilarli kengaydi, ayniqsa o'sish qishloq joylarda yaqqol ko'zga tashlandi. Yangi ochilgan o'rta maktablarning 83 foizi aynan qishloqlarda tashkil etilgan bo'lib, IX–X-sinf o'quvchilari sonining 78 foizi ham qishloq o'quvchilari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu davrda o'rta maktabni tamomlaganlar soni 712 ming nafarga yetgan, shundan 444,5 ming nafari (62,4%) qishloq yoshlari edi[6]. Bu jarayon O'zbekistonda xalq ta'limining ommalashuvi, qishloq aholisi o'rtasida savodxonlikning keskin o'sishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, u ta'lim tizimidagi hududiy tafovutlarning davom etayotganidan ham dalolat beradi.

1970-yillar o'rtalari O'zbekiston SSR ta'lim tizimida barqaror kengayish va institutsional mustahkamlanish jarayoni bilan xarakterlanadi. Respublikada kunduzgi va kechki (smenali) umumta'lim maktablaridan tortib, maktabgacha, o'rta-maxsus va oliy ta'limgacha bo'lgan tizimda ijtimoiy-demografik hamda boshqaruviy omillar ta'sirida qamrov ko'rsatkichlari o'sdi, infratuzilma kengaydi va kadrlar tayyorlash hajmi sezilarli darajada ortib bordi.

1975/76 va 1976/77 o'quv yillari ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha kunduzgi umumta'lim maktablari soni 7 292 tadan 7 339 tagacha yoki 0,6 foizga o'sgan. Shunga mos ravishda o'quvchilar kontingenti 3 543,3 ming nafardan 3 570,1 ming nafargacha ko'payib, 0,75 foizlik o'sishni namoyon etgan.

Qishloq maktablari respublika umumta'lim tizimining asosiy qismini tashkil etgan. Ular 1975/76 yilda 6 050 ta bo'lgan bo'lsa, 1976/77 yilda 6 083 taga yetgan. Qishloq joylarda o'quvchi bolalar soni 2 448,8 mingdan 2 463,6 ming nafarga oshgan. Bu holat respublika aholisining demografik o'zagi qishloqlarda shakllanganini va davlat tomonidan qishloq ta'lim

tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlari ta'lim tizimida yetakchi o'rinda bo'lgan, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida maktablar soni sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda, jumladan, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida maktablar soni qisqargan bo'lsa-da, o'quvchilar soni o'sishda davom etgan. Bu holat ta'lim muassasalarini markazlashtirish va irrigatsiya qilish (yiriklashtirish, resurslarni birlashtirish) siyosati amalga oshirilganidan dalolat beradi[7].

Qashqadaryo viloyati misolida ham mazkur tendensiya yaqqol ko'zga tashlanadi. 1975/76 o'quv yili boshida viloyatda 655 ta kunduzgi umumta'lim maktabi mavjud bo'lgan bo'lsa, 1976/77 yilda ularning soni 663 taga (+1,2%) yetgan. O'quvchilar soni 285 592 nafardan 289 458 nafarga (+1,4%) ko'paygan. Viloyatda qishloq maktablari mutlaq ustunlikka ega bo'lib, ularning soni 611 dan 615 taga yetgan, qishloq o'quvchilari esa 238 ming atrofida barqaror bo'lgan. Bu holat, bir tomondan, demografik yadroning qishloqlarda saqlanayotganini, ikkinchi tomondan, maktab tarmoqlarini to'g'ri boshqarish, resurslar taqsimotini optimallashtirish va ta'lim muassasalari faoliyatini markazlashtirish siyosati samara berganini ko'rsatadi.

1977–1979 yillar davrida ta'lim tizimidagi barqaror o'sish yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Respublika bo'yicha umumiy maktablar soni 1977/78 o'quv yilidagi 7 378 tadan 1978/79 yilda 7 424 taga (+46 ta maktab) yetgan. O'quvchilar kontingenti 3 595 401 nafardan 3 650 959 nafarga (+55 558 nafar yoki +1,5%) ko'paygan. Qishloq maktablari soni ham 6 126 tadan 6 136 taga ko'payib, ularda ta'lim oluvchi bolalar soni 2 476 786 nafardan 2 513 680 nafarga (+1,4%) yetgan. Bu o'sish aholining tabiiy ko'payishi va ta'lim qamrovining kengayishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Qashqadaryo viloyatida ham 1977–1979 yillardagi ko'rsatkichlar ta'lim infratuzilmasining rivojlanishini tasdiqlaydi. 1977/78 yilda viloyatda 672 ta maktab faoliyat yuritgan bo'lsa, 1978/79 yilda ularning soni 682 taga (+1,5%) yetgan. O'quvchilar soni 293 482 nafardan 300 609 nafargacha (+7 127 nafar) ko'paygan. Qishloq maktablari soni 624 tadan 621 taga qisqargan bo'lsa-da, bu markazlashtirish va resurslarni samarali taqsimlash siyosati bilan izohlanadi. Qishloq o'quvchilari soni esa deyarli o'zgarmas holda — 241 ming atrofida barqaror bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar ta'lim tizimidagi o'sishning miqdoriy ko'lami bilan birga tashkiliy samaradorlik oshganini ham anglatadi[8].

1975/76 o'quv yilida respublika bo'yicha kechki maktablar soni 2 261 tani tashkil etgan bo'lsa, 1976/77 o'quv yilida bu raqam 2 159 taga kamaygan. Biroq mustaqil kechki maktablar soni 486 tadan 501 tagacha oshgan. Bu holat tarmoqda miqdoriy qisqarish emas, balki sifat jihatidan qayta tuzilish jarayoni — samaradorlik va markazlashtirish siyosati amalga oshirilganini anglatadi. O'quvchilar soni 212,8 ming nafardan 219,8 ming nafargacha,

o'qituvchilar esa 3 279 tadan 3 484 nafargacha ko'paygan. Bu kadrlar ta'minotida barqaror o'sishni va pedagogik salohiyatning yaxshilanishini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida kechki maktablar qamrovi yuqori bo'lgan, ayniqsa sanoat markazlarida ishlovchi yoshlar uchun bu maktablar asosiy ta'lim manbai bo'lgan. Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida ham kechki ta'lim tizimi barqaror rivojlanish bosqichini boshdan kechirgan. Jizzax viloyatida maktablar soni ko'paygan bo'lsa-da, o'quvchilar soni pasaygan — bu ishchi yoshlarning boshqa hududlarga ishga ketishi va mehnat strukturasiidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi[9].

Qashqadaryo viloyatida kechki maktablar tizimi 1970-yillar o'rtalarida miqdoriy qisqarish, lekin institutsional mustahkamlanish bosqichini boshdan kechirdi.

1975/76 o'quv yilida viloyatda 106 ta kechki maktab (shu jumladan 21 ta mustaqil) faoliyat yuritgan bo'lsa, 1976/77 o'quv yilida ularning umumiy soni 66 taga kamaygan, ammo mustaqil kechki maktablar 22 tagacha ko'paygan. Bu ta'lim muassasalarini yiriklashtirish va samarali tashkil etish siyosati samarasidir.

Shu yillarda o'quvchilar soni 16 723 nafardan 16 841 nafargacha (+0,7%) ko'paygan. Bu holat tizimning ijtimoiy talablarga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Asosiy shtatdagi o'qituvchilar 155 tadan 124 nafargacha kamaygan bo'lsa-da, bu kadrlar sonining qisqarishi emas, balki resurslarni yirik, markazlashgan maktablarga qayta taqsimlash natijasidir. Natijada o'quvchi-o'qituvchi nisbati optimallashtirilgan[10].

1977–1978 yillar statistikasiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida kechki maktablar faoliyatida o'sish va barqarorlik saqlanib qolgan.

1977 yilda 8-sinfni 584 nafar, 10-sinfni 4 482 nafar o'quvchi bitirgan bo'lsa, 1978 yilda mos ravishda 567 va 4 084 nafar bo'lgan. Bu kichik pasayish maktablarni markazlashtirish va o'quv yuklamalarni qayta taqsimlash siyosati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, umumiy kontingentning barqaror saqlanishi ta'lim tizimidagi ijtimoiy barqarorlikni anglatadi. 1975/76 o'quv yilida kunduzgi maktablarda ikkinchi yil qolish darajasi jami 0,4 foizni tashkil etgan. Bu ta'lim natijaviyligining barqarorligi va o'quv jarayonining samaradorligini ko'rsatadi.

Kechki maktablarda bu ko'rsatkich 3,9 foizga teng bo'lib, mehnat faoliyati bilan o'qishni uyg'unlashtirish murakkabligi, o'qishga ajratiladigan vaqtning cheklanganligi va o'quv-metodik qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Eng past ko'rsatkichlar Toshkent shahri va Jizzax viloyatida, eng yuqori ko'rsatkichlar esa Samarqand, Namangan va Qoraqalpog'iston hududlarida qayd etilgan. Bu hududlarda kechki ta'limni samarali tashkil etish uchun individuallashtirilgan o'quv dasturlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikdagi ta'lim modellariga ehtiyoj katta bo'lgan[11].

Qashqadaryo viloyatida 1975/76 yilda kunduzgi maktablarda ikkinchi yilga qolganlar 1132 nafarni, bu jami kontingentning 0,4 % ini tashkil etdi — respublika oʻrtacha darajasiga mutanosib barqaror natija. Kechki maktablarda esa 484 nafar (3,2 %) qayd etildi. Bu tafovut mehnat va oʻqishni uygʻunlashtirishdagi qiyinchiliklar, hamda ayrim yoʻnalishlarda metodik-tashkiliy yordam yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Shu bois kechki segmentda modul-grafiklar, ish joyida oʻqitish elementlari va tenglashtiruvchi tayyorgarlik kurslarini joriy etish zarurati kuchli boʻlgan.

1975–1977 yillarda Oʻzbekiston SSR taʼlim tizimida quyidagi asosiy yoʻnalishlar namoyon boʻldi:

1. Qamrov kengayishi va taʼlim strukturasining diversifikatsiyasi — kunduzgi taʼlim bilan birga kechki va sirtqi shakllarda ham oʻquvchilar soni ortib, taʼlimning ijtimoiy qamrovi kengaydi.
2. Qishloq taʼlim tarmogʻining ustuvorligi — qishloq maktablari umumiy tizimning asosiy qismini tashkil etgan, ularni saqlash va modernizatsiya qilish siyosati ustuvor boʻlgan.
3. Sifat va natijaviylikdagi farqlar — kechki maktablarda ikkinchi yil qolish yuqori boʻlgani taʼlim va ish faoliyati uygʻunligini takomillashtirish zaruratini koʻrsatgan.
4. Oliy taʼlim va mehnat bozori uygʻunligi — kadrlar tayyorlash hajmining oʻsishi sanoat va qishloq xoʻjaligi ehtiyojlariga mos kelgan.
5. Hududiy disbalanslar mavjudligi — Toshkent shahri va yirik viloyatlarda taʼlim imkoniyatlari kengroq boʻlgan, bu esa keyingi islohotlarda hududiy tenglikni taʼminlash zaruratini keltirib chiqargan.

Xulosa qilib aytganda shu davrda Oʻzbekistonda xalq taʼlimi tizimi izchil rivojlanib, ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Maktablar soni va oʻquvchilar qamrovi oshdi, qishloq aholisi orasida oʻrta taʼlimni olganlar soni koʻpaydi. Biroq hududiy tafovutlar, resurs tanqisligi va ishlab chiqarish bilan bogʻliq taʼlimning toʻliq amalga oshmasligi islohot samaradorligini chekladi. Bu yillar xalq taʼlimi tizimining institutsional asosi shakllangan davr boʻldi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Романова, Галина Алексеевна. Реформирование системы школьного образования в 1958-1964 гг.: На материалах Куйбышевской области. Автореферат дисс. На соискание учёной степени кандидата исторических наук, Самара-2003. — с.24.
2. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. -Т., 1966.-С.318.
3. Кадыров И. Развитие школ УзССР в послевоенный период. -Т., 1965-С.32
4. ЦГА РУз, ф. 1619, оп. 11, д. 2217, л. 4; ф. 94, оп. 8, д. 43, л. 1

5. ЦГА РУз, ф. 1619, оп. 11, д. 2217, л. 4; ф. 94, оп. 8, д. 43, л. 1.
6. Кадыров И. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. -С. 229.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), 1619-fond, 11-ruyxat, 3571-ish, 1-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). F.1619, r.11, 8-23-ish, 1-varaq
9. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), 1619-fond, 11-ro‘yxat, 3571-ish, 17-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). F.1619, r.11, 8-23-ish, 17-varaq.
11. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), 1619-fond, 11-ro‘yxat, 3571-ish, 25-varaq.